

**SamDVMChBU Axborot texnologiyasi va tabiiy fanlar kafedrasi o‘qituvchi  
M.Aripovaning Kimyo 1,2 fanidan “VII A guruh elementlari” mavzusidagi  
ochiq ma’ruza mashg’uloti ishlanmasiga**

**TAQRIZ**

Kimyo 1,2 “Fan dasturi” asosida ishlab chiqilgan Ishchi dastur (sillabus) tayyorlangan bo’lib, unga muvofiq ma’ruza mashg’uloti rejasi va matni tayyorlangan. Tuzilgan reja, ma’ruza mashg’uloti davomida “VII A guruh elementlari” mavzusida qo’yilgan maqsadni, mavzu mazmunini talabalarga to’liq yetkazilishini, oziq-oxqat texnologiyasi mutaxassisligi bilan bog’liq elementlarini to’liq qamrab olgan.

Ma’ruza mashg’ulotining texnologik xaritasida dars davomida vaqt me’yordan to’g’ri foydalanish, ya’ni kirish, asosiy va xulosa qismlari uchun taqsimlangan daqiqalar metodik talablarga mos keladi.

Taqdimotda “VII A guruh elementlari” mavzusida o‘rganiladigan galogen elementlari, xususan Ftor, Xlor, Brom va Yod larning umumiy fizik va kimyo xususiyatlarini ifodalovchi ma’lumotlar va kimyoviy jarayonlarning tenglamalari, Xlor va Yod ionlarini saqllovchi birikmalarning oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoatida qo’llanilishiga doir ma’lumotlar keltirilgan.

O‘qituvchi M.Aripovaning “VII A guruh elementlari” mavzusidagi ochiq ma’ruza mashg’ulotining taqdimoti hozirgi zamon ta’lim texnologiyasi talablariga to’liq javob beradi.

Oziq-ovqat texnologiyasi mutaxassisligi 1-bosqich talabalari uchun tayyorlangan ma’ruza mashg’uloti ishlanmasida qo’yilgan uslubiy maqsadga erishilgan, shu sababli undan Universitetda o’tkaziladigan mashg’ulotlarda foydalanish mumkin.

**Sharof Rashidov nomidagi  
SamDU organik sintez  
va bioorganik kimyo  
kafedrasi dotsenti**



**Tillayev S.U.**